

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

"Ro'yxatga olindi"

No 12
"21" - 07 2022 yil.



"PEDAGOGIKA" NORMA
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000	-	Gumanitar soha.
Ta'lim sohasi:	110000	-	Pedagogika.
Ta'lim yo'nalishi:	60112400	-	Professional ta'lism (Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish).

Qarshi – 2022y.

Fan dasturi “Ijtimoiy fanlar” kafedrasining 2022 yil “25” 06 dagi
No 1 sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va institut Kengashi tomonidan
tasdiqlash uchun taqdim etilgan.

Fan dasturi Qarshi muhandislik iqtisodiyot institutida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: **N. Amirov**, “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi.

Taqrizchilar: **A. Soxibov**, QDU “Pedagogika” kafedrasi mudiri, p.f.n, dotsent.
Sh. Turdiyev, QMII O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i,
p.f.f.d,dotsent.

Fan dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Kengashida muhokama
qilingan va 2022 yilning 21, 07 dagi № 12 sonli bayonnomasi bilan tavsiya
etilgan.

Kirish

“Pedagogika tarixi” fani bakalavriat Professional ta’lim 60112400 - (Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish) ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasiga kiritilgan bo‘lib, tanlov o‘quv predmeti sifatida o‘qitish ko‘zda tutilgan. Mazkur fan dasturi ushbu bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda “Pedagogika tarixi” fanining predmeti, maqsad va vazifalari, mazmuni, tarixiyligi, izchilligigi, o‘ziga xos xususiyatlari bayon qilingan.

Fanning asosiy maqsad va vazifalari.

Vatanimizning kelajagi bo‘lgan yosh muhandis-pedagog kadrlarni intellektual salohiyatini rivojlantirish, har sohada barkamol qilib tarbiyalash uchun kasb-hunarning ahamiyati, o‘z kasbini sevishi, fidoyisi bo‘lishi, kasbi doirasida eng ilg‘or tajribalarni o‘zlashtirishi, ularda kasb egasiga hurmat, iftixon, vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg‘ularini uyg‘otish va shakllantirishdan iborat.

“Pedagogika tarixi” fani – pedagogika fanining taraqqiyot bosqichlarini, o‘ziga xos tomonlarini hamda allomalarining ta’limiy va tarbiyaviy fikrlarini o‘rganadi. Mazkur fan pedagogikaning mohiyati, o‘ziga xosligini tahlil etadi.

Fan bo‘yicha talabalarning bilimi, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar.

“Pedagogika tarixi” fanini o‘zlashtirish jarayonida amalda oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

“Pedagogika tarixi” fanining predmeti, ob’yekti, tarbiyaviy g‘oyalar, allomalarining ilm va uni o‘rganishning ijtimoiy ahamiyati borasidagi fikrlari, manbalari haqidagi ma’lumotlarni bilishi kerak.

Fanning boshqa fanlar bilan aloqasi

“Pedagogika tarixi” fani o‘z faoliyati jarayonida pedagogik fanlar tizimiga kiruvchi barcha fanlar falsafa, umumiylar pedagogika, tarix, jamiyatshunoslik, etnografiya, arxeologiya, adabiyot, san’at kabi fanlar bilan uzviy bog‘liqdir.

Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

“Pedagogika tarixi” fanini o‘qitish jarayonida o‘qitishning zamonaviy texnik vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Talabalar bilimini nazorat qilish va baholashda test, yozma ishlar, kolokvium kabi nazorat shakllaridan foydalanish mumkin.

Tizimli yondoshuv. Ta’lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o‘zida mujassam etmog‘i lozim, jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo‘g‘inlarini o‘zaro bog‘langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta’lim oluvchining faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish, o‘quv

jarayonida uning barcha qobiliyatları va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo‘naltirilgan ta’limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o‘quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o‘z-o‘zini faollashtirishi va o‘z-o‘zini ko‘rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyati mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e’tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta’lim. Ta’lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta’lim oluvchi faoliyatini faollashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob’ektiv qaramaqshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo‘llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta’minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo‘llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llash.

O‘qitishning usullari va texnikasi. Ma’ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta’lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O‘qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot, hamkorlik va o‘zaro o‘rganishga asoslangan frontal, jamoaviy va guruhli.

O‘qitish vositalari: o‘qitishning an’anaviy shakllari (garslik, ma’ruza matni) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyaları.

Kommunikasiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o‘zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, bliss-so‘rov, oraliq va joriy va yakuniy nazorat natijalarini tahlili asosida o‘qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o‘quv mashg‘uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik xarita ko‘rinishidagi o‘quv mashg‘ulotlarini rejalashtirish, kutilgan maqsadga erishishda o‘qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg‘ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati ham.

Monitoring va baholash: o‘quv mashg‘ulotida ham butun kurs davomida ham o‘qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

“Pedagogika tarixi” fanini o‘qitish jarayonida kompyuterli texnologiyalardan foydalaniladi. Ayrim mavzular bo‘yicha talabalar bilimini baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. “Internet” tarmog‘idagi rasmiy pedagogik va texnologik ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so‘z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o‘tkaziladi.

Asosiy qism. Fanning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Asosiy qismda (ma’ruza) fanning mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo‘yicha talabalarga DTS asosida yetkazilishi zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar to‘la qamrab olinishi kerak.

Asosiy qism sifatiga qo‘yiladigan talab mavzularning dolzarbligi, ularning ish beruvchilar talablari va jamiyatdagi pedagogik kasbga bo‘lgan ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o‘zgarishlar, iqtisodiyotni erkinlashtirish, ta’lim, iqtisodiy-huquqiy va boshqa sohalardagi islohotlarning ustuvor masalalarini qamrab olishi hamda fan va texnologiyalarning so‘nggi yutuqlari e’tiborga olinishi tavsiya etiladi.

Ma’ruza mashgulotlari

Eng qadimgi davrlardan milodning VII asrigacha ta`lim-tarbiya va pedagogik fikrlar. “Pedagogika tarixi” fanining boshqa fanlar bilan aloqalarini o’rganish.

Qadimgi xalq og`zaki ijodiyotida tarbiyaga oid fikrlar. Avesto eng qadimgi yozma ma`rifiy yodgorlik sifatida. Qadimgi turkiy xalqlar yodgorliklarida tarbiyaga oid fikrlar. Eng qadimgi davrlarda ulug`langan axloqiy sifatlar. Buyuk mutafakkirlarning qarashlari.

VII-XIV asrlarda maktab, tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti.

Islom dini g`oyalarining ta`lim-tarbiyaga ta`siri. Musulmon mакtablarida ta`lim-tarbiya. Hadis ilmining paydo bo`lishi. Imom al Buxoriy va Imom at-Termiziyning hadis ilmi rivojidagi xizmatlari. Hadislarning mazmuni va tarbiyaviy ahamiyati. So`fiylik ta`limoti. Ahmad Yassaviy. Xoja Abduxoliq G`ijduvoniy. Bahovuddin Naqshband.

Sharq uyg`onish davrida ta`lim-tarbiya masalalari.

Sharq uyg`onish davrida ilm-fan va madaniyat. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning ilmiy merosi va uning didaktik qarashlari. Abu Nasr Forobiy. Abu Rayxon Beruniy. Abu Ali ibn Sino. Ta`limiy-axloqiy qarashlarning paydo bo`lishi.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston o`lkasida ta`lim-tarbiya va pedagogik fikrlar.

Turkiston o`lkasida diniy-islomiy tarbiya muassasalari va pedagogik fikrlar taraqqiyoti. Turkistonda chorizm maktab siyosatining boshlanishi. Rus-tuzem maktablari va matbuot. Turkistonda jadidchilik harakati va ta`lim-tarbiya. Mahmudjo`ja Behbudiy. Munavvar qori Abdurashidxon o`g`li. Ishoqxon

Ibrat.Abdulla Avloniy.Abdurauf Fitratning ta`lim-tarbiya haqidagi qarashlari,uning o`ziga xosligi.

1917-1990- yillaridagi ta`lim-tarbiya, maorif va pedagogik fikr.

O`zbekistonda 1917-1924-yillarda maktab va maorif.Ikkinchı jahon urushi va urushdan keying yillarda O`zbekistonda xalq maorifi va pedagogika. Siddiq Rajabov. XX asrning 70-80-yillarida O`zbekistonda xalq ta`limi.

Mustaqil O`zbekistonda ta`lim va pedagogik fikrlar taraqqiyoti.

Mustaqillik davrida ta`lim tizimidagi islohotlar. O`zbekistonda “Ta`lim to`g`risida”gi qonuni.Ta`lim tizimi va turlari. Xorijiy tajribalarning qo`llanilishi.

Jahon pedagogika fani va rivojlanish tarixi.Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta`lim tizimi.

Qadimgi Yunonistonda va Rim davlatlarida ta`lim-tarbiya. G`arbiy Yevropada maktab, maorif va pedagogik fikrlar taraqqiyoti. Yan Amos Komenskiy. Iogann Genrix Pestalotsi.Konstantin Dmitrievich Ushinskiy.

Amerika qo`shma shtatlarida ta`lim tizimi. Yaponiyada ta`lim tizimi. Janubiy Koreya, Fransiya, Germaniya kabi davlatlarda ta`lim tizimi.

Amaliy(seminar) mashg`ulotlari bo`yicha ko`rsatma va tavsiyalar Amaliy (seminar) mashg`ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- 1.Eng qadimgi ma`rifiy yodgorliklarda ta`lim-tarbiya masalalari
- 2.Ilmining paydo bo`lishi va mashhur muhaddislarning hadis ilmini yaratishdagi xizmatlari
- 3.Uyg`onish davri va unda ta`lim-tarbiya masalalari
- 4.Ibn Sino ta`lim-tarbiya haqida
5. Yusuf Xos Xojibning Hayoti va ijtimoiy faoliyati (Qutadg`u bilig asarida ta`lim va axloq muammolari)
6. Kaykovusning “Qobusnoma” asarida ta`limiy-axloqiy muammolar
7. Temuriylar davrida ta`lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti
8. Avloniyning pedagogik faoliyati va ta`lim-tarbiya haqidagi qarashlari
9. Alisher Navoiy ta`lim haqida.
10. Abdulla Avloniyning pedagogik faoliyati va ta`lim-tarbiya haqidagi qarashlari.

- 11.Yan Amos Komenskiyning pedagogic faoliyati va nazariyasi.
- 12.Iqtisodiy rivojlangan xorijiy davlatlarda ta`lim tizimi.

Mustaqil ta`lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta`lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Ta`limiy-axloqiy qarashlarning paydo bo`lishi.
2. Yusuf Xos Hojib.
3. Kaykovusning “Qobusnomा” asari.
4. Ahmad Yugnakiy “Hibat ul-haqoyiq”.
5. Muslihiddin Sa`diy “Guliston”.
6. Ta`lim tizimini isloh qilishning mohiyati.
7. “Ta`lim to‘g‘risida”gi Qonun, professional ta`lim.
8. Kasbiy ta`lim tizimi va turlari.
9. Muhammad Tarag`ay Ulug`bek.
10. Zahiriddin Muhammad Bobur.
11. Alisher Navoiy.
12. Husayin Voiz Koshifiy.
13. Buxoro, Xiva, Qoqon xonliklarida ta`lim-tarbiya, maktab.
14. Jahon Otin Uvaysiy.
15. Abdurauf Fitratning axloqiy qarashlarining o`ziga xosligi.
16. Kasb-hunar kollejiarida o‘quvchilarni tarbiyalash.

Fanni o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiylar)

Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:

- “Pedagogika tarixi” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida bakalavr:
- pedagogikaning metodologik asoslari va taraqqiyoti davrlarini;
- insonning madaniy va ma‘naviy shakllanishi tarixini;
- kasb ta’limining asosiy komponentlarini;
- kasb ta’limi muassasalarida tarbiya jarayonining mohiyati haqida tasavvurga ega bo‘lishi;
- kasbiy ta’limning tamoyillarini;
- kasbiy ta’lim samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlarini;
- kasbiy ta’lim samaradorligini baholashning an‘anaviy usullarini;
- pedagogik faoliyatni boshqarish dasturini ishlab chiqish;
- ta’lim oluvchilarning o‘quv faoliyatini tashkil etish;
- ustoz-shogird an‘analarini takomillashtirish;
- shaxslararo munosabatlarni o‘rnata olish va psixologik bilimlar asosida

boshqaruv qarorlarini qabul qilish malakalariga ega bo‘lishi kerak.

Ta’lim texnologiyalari va metodlari:

- ma’ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlar qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

Talabalar bilimini nazorat qilish uchun baholash mezoni.

“Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Nizom O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2018 yil 9-avgustdagi 19-2018 son buyrug‘i bilan tasdiqlangan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018 yil 26-sentabrdagi 3069-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Ushbu Nizom asosida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi orqali baholashdan maqsad O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PQ – 3735-son “Oliy ta’lim muassalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq ta’lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarning “Pedagogika tarixi” fanini o‘zlashtirishida bo‘shliqlar hosil bo‘lishini oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

“Pedagogika tarixi” fanidan tuzilgan talabalar bilimini nazorat qilish va baholash jadvalining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- a) talabalarda Davlat ta’lim standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko‘nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish;
- b) fanning asosiy tushunchalarini talabalar tomonidan tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o‘zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish;
- c) talabalarda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- d) talabalar bilimini xolis va adolatli baholash hamda uning natijalarini vaqtida ma’lum qilish.

“Pedagogika tarixi” fanidan nazorat turlari va uni amalga oshirish tartibi

Talabalarning bilim saviyasi va o‘zlashtirish darajasining Davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini ta’minlash uchun quyidagi nazorat turlarini o‘tkazish nazarda tutiladi:

JORIY NAZORAT – talabaning fan mavzulari bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat “Pedagogika tarixi” fanining xususiyatidan kelib chiqqan holda, amaliy mashg‘ulotlarda og‘zaki so‘rov, test o‘tkazish, nazorat ishi, mustaqil ish vazifalarini tekshirish shakllarda o‘tkaziladi;

ORALIQ NAZORAT – semestr davomida “Pedagogika tarixi” fani ishchi o‘quv dasturining tegishli (bir necha mavzularini o‘z ichiga olgan) bo‘limi tugallangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli hisoblanadi. “Pedagogika tarixi” fanidan oraliq nazorat bir semestrda bir marta yozma shaklda o‘tkaziladi;

YAKUNIY NAZORAT – semestr yakunida “Pedagogika tarixi” fani bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni talabalar tomonidan o‘zlashtirish darajasini baholash usuli hisoblanadi. Yakuniy nazorat “Pedagogika tarixi” fanidan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “og‘zaki” shaklida o‘tkaziladi.

Professor - o‘qituvchilar tomonidan “Pedagogika tarixi” fanidan oraliq nazoratni o‘tkazish jarayoni kafedra yig‘ilishlarida davriy ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, oraliq nazorat natijalari bekor qilinadi hamda oraliq nazorat qayta o‘tkaziladi.

“Pedagogika tarixi” fanidan yakuniy nazorat dekanat tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida o‘tkaziladi. Yakuniy nazoratni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, yakuniy nazorat natijalari bekor qilinadi hamda yakuniy nazorat qayta o‘tkaziladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

Asosiy adabiyotlar

- 1.Komiljon Hashimov, Sanobar Nishonova “Pedagogika tarixi” II qism, Darslik,
A.Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, T.; 2005y.
2. A. Zunnunov, M. Xayrullayev, B.Tuxliyev va N. Hotamov “Pedagogika tarixi”,
Darslik, Sharq nashriyot matbaa konserni bosh tahririyati, T.; 200y.
- 3.A.Zunnunov tahriri ostida “O`zbek pedagogikasi tarixi” O`quv
qo`llanma,”O`qituvchi”, T.; 1997y.
- 4.G. Niyozov, M. Axmedova, “Pedagogika tarixidan seminar mashg`ulotlari”
O`quv qo`llanma, ”Noshir”, T.; 2011y.

Qo‘srimcha adabiyotlar

5. Narzulla Muslimov, Zokir Raximov, Alijon Xo‘jayev Kasbiy pedagogika,
O‘quv qo‘llanma T.,2020. 510b.
- 6.Nishonaliev U.N. Kasbiy ta’lim pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma -T.: TDPU.
2007y.
- 7.Abdiquddusov O., Rashidov H. Kasb-hunar ta’limi pedagogikasi. O‘quv
qo‘llanma. O‘MKHTTKMO va UQTI, T.: - 2009 120 b.
- 8.Muslimov N.A., Qo‘ysunov O.A., Sharipov Sh.S. “Kasb ta’limi pedagogikasi”
fanidan o‘quv metodik majmua. Nizomiy nomidagi TDPU, 2011. – 20
- 9.Xo‘jayev N va boshqalar., Pedagogika asoslari. – T., 2003.– 344 b.

Elektron ta`lim resurslari:

www.ziyonet.uz

www.tdpu.uz

www.pedagog.uz

www.edu.uz

